

**1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi**

1. O'rta asrlarda Fransiyada qanday ehtiyoj viloyatlar orasidagi feodal tarqoqlikni tugatishni taqozo etardi?  
A) kuchli qirol hokimiyatiga bo'lgan ehtiyoj  
B) mehnat taqsimoti  
C) yangi tabaqalar shakllanishi  
D) iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish
2. Eron tarixida nasab (familiya) joriy qilingan yili yuz bergan voqeani aniqlang.  
A) Chan Kayshi boshchiligidagi armiya Shimolga yurish boshladi;  
B) Millatlar Ligasi tomonidan "Qullik haqida" konvensiya qabul qilindi;  
C) Italiyada Mussalini tomonidan irqiy qonunlar chiqarildi;  
D) Aleksandr Flem tomonidan Penicillium ixtiro qilindi;
3. To'g'ri ma'lumotni toping.  
A) Doro I Suza shahridan Qora dengiziga qadar "shoh yo'li" degan savdo yo'lini qurdirgan.  
B) Doro I Qizil dengizi bo'ylarida yashovchi skiflar ustiga yurish qildi.  
C) Doro I saltanatni "satrapliklar" deb nomlangan alohida harbiy-ma'muriy o'lkalarga taqsimladi.  
D) Doro I butun mamlakat uchun "numisma" deb nomlangan mis tangani muomalaga kiritdi.
4. BRIKS tashkilotiga a'zo bo'lgan Lotin Amerikasi davlatini aniqlang.  
A) Argentina      B) Braziliya      C) Peru      D) Meksika
5. XIX asr o'rtalarida Qo'qon xonligining janubiy chegaralari qaysi tog'li o'lkalarni o'z ichiga olgan?  
A) Sho'g'on, Darvoz, Vaxsh, O'sh  
B) Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'on  
C) Vaxsh, Hisor, Darvoz, Qorategin  
D) Panj, Ko'lob, O'zgan, Sho'g'on
6. Dehli sultonligiga shimoldan mo'g'ullar hujumlarini qaytarish imkonini bergan omil qaysi javobda ko'rsatilgan?  
A) Mamlakatning markazlashuvi  
B) Butun mamlakat hududida musulmonlar hokimiyati o'rnatilishi  
C) Kuchli va intizomli qo'shin bo'lishi  
D) Harbiylar, qo'shin boshliqlari noiblikka tayinlanishi
7. Qaysi davlat sut va sut mahsulotlari yetkazib beruvchi dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoriga kiradi?  
A) Moldaviya      B) Estoniya      C) Belorussiya      D) Ukraina
8. 1842-yilda Buxoro amiri tomonidan qatl etilgan Ch. Stoddart va A. Konnolilar Buxoroga qanday taklif bilan kelgan edi?  
A) o'zbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryoning janubiy sohillarida ingliz harbiy istehkomlarini qurish  
B) Sirdaryo sohillarida harbiy istehkomlar qurish, ularning qurilishida ingliz muxandislarini taklif qilish  
C) Angliya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, ingliz harbiy mutaxassislarini Buxoroga yuborish, savdo aloqalarini yo'lga qo'yish  
D) O'rta Osiyo davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ular bilan Rossiya imperiyasiga qarshi harbiy ittifoq tuzish
9. 1230-yil avgustda Ko'niya, Jazira, Damashq, Misrni birlashgan qo'shinidan Jaloliddin Manguberdi kuchlari qayerda mag'lubiyatga uchraydi?  
A) Garni      B) Basra      C) Arzinjon      D) Marog'a
10. Qoraqalpoqlarda dastlabki sanoat korxonalarini qaysi sohalarda paydo bo'ldi?  
A) paxta tozalash va baliqchilik sanoati  
B) yog'-moy va paxtachilik sanoati  
C) baliq va go'sht sanoati  
D) teriga ishlov berish va tog'-kon sanoati



**2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi**

11. Turkiston ASSRda ocharchilikka qarshi kurash Markaziy komissiyasi qachon tuzildi?  
A) 1918-yil 25-iyun  
B) 1918-yil 22-noyabr  
C) 1919-yil 27-mart  
D) 1918-yil 20-noyabr
12. Kimlar Kserks qo'shinidagi eng yaxshi jangchilardan hisoblangan?  
A) sak va baqtriya suvoriylari  
B) sak va massaget piyodalari  
C) so'g'd va massaget suvoriylari  
D) xorazmlik jangchilar
13. Quyidagilardan qaysi biri Jaloliddin Manguberdi haqida ma'lumot beruvchi asarlar sirasiga kirmaydi?  
A) "Al-Komil fit-tarix"  
B) "Tarixi jahonkusho"  
C) "Ravzat us-safo"  
D) "Habib us-siyar"
14. Xorazm qaysi hududlar bilan diplomatik aloqa olib borgan?  
A) Rim imperiyasi va saljuqiylar bilan  
B) Vizantiya va turklar bilan  
C) Kushon podsholigi va qang'lar bilan  
D) Arablar va yahudiylar bilan
15. IV asrda Vizantiya tarkibiga qaysi hududlar kirgan?  
A) Bolqon yarim oroli, Apinnin yarim oroli, Galliya, Suriya, Falastin, Misr va Kipr orollari  
B) Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Kavkaz, Suriya, Falastin, Misr, shuningdek, Krit va Kipr orollari  
C) Pireney yarim oroli, Old Osiyo, Germaniya, Liviya, Misr, shuningdek, Krit, Korsika va Kipr orollari  
D) Sitsiliya oroli, Kichik Osiyo, Apinnin yarim oroli, Sardiniya, Falastin, Malta va Kipr orollari
16. Ilk o'rta asrlarda Arab xalifaligida boshlangan qaysi jarayon mamlakatda hunarmandchilik va savdning yuksalishiga olib keladi?  
A) Islom dinning qabul qilinishi  
B) Mulkiy tengsizlikning kuchayishi  
C) aniq fanlar – matematika, astronomiya, geografiyaning taraqqiyoti  
D) Bag'dod va Damashqda rasadxonalar barpo etilishi
17. Qashshoqlik, jabr-zulm va dehqonlar asoratiga qarshi qaratilgan qo'zg'olon nomini aniqlang?  
A) Bobiylar qo'zg'oloni  
B) Abruy qo'zg'oloni  
C) Sipohiylar qo'zg'oloni  
D) Mahmud Torobiy qo'zg'oloni
18. 1960-yillarning oxiriga kelib Yaponiya qanday ko'rsatkich bo'yicha dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi?  
A) yengil avtomobil eksporti  
B) chetga kapital chiqarish  
C) neft mahsulotlari importi  
D) yalpi ichki mahsulot hajmi
19. Toshkentda yuz bergan "Vabo isyoni"dan so'ng "Favqulodda muhofazada" deb e'lon qilingan joylarda hokimiyat kimning qo'liga o'tdi?  
A) viloyat harbiy gubernatori va volostnoy  
B) shu hududdagi politsiya mahkamasi boshlig'i yoki uyezd qo'mondoni  
C) general-gubernator yoki u tayinlagan bosh noib  
D) Rossiya imperiyasi ichki ishlar vaziri va Duma
20. Quyidagi atamalarning ma'nolari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
1) moliya; 2) trest; 3) kapital; 4) ssuda;  
a) moddiy boyliklar garovi hisobiga foiz to'lash va qaytarib berish sharti bilan muayyan muddatga qarzga beriladigan pul yoki moddiy boylik; b) sarmoya, o'z egasiga daromad keltiruvchi jami vositalar va



mablag'lar, ya'ni qiymat keltiruvchi, o'zini o'zi ko'paytiruvchi qiymat; c) ishlab chiqarish va savdoni o'zlaricha emas, markaziy boshqaruv qarori asosida olib boradigan korxonalar birlashmasi; d) maqsadli pul jamg'armalarini vujudga keltiruvchi, jamlash, taqsimlash va ishlatish bilan bog'liq munosabatlar

- A) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a  
B) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a

- C) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c  
D) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c

21. Berilgan variantlardan qaysi biri voqea xronologik jihatdan keyinroq sodir bo'lgan ?

- A) Efiopiya hukmdori Menelik sudanliklar foydasiga bitim imzoladi  
B) Xartumga misrlik Abdul Qodir general-gubernator etib tayinlandi  
C) Sudanda mustaqil mahdiylar davlati tuzildi  
D) Istanbulda Suvaysh kanali bo'yicha konvensiya imzolandi

22. Quyidagilardan Qarluqlar (a) va O'g'uzlar (b) tarixiga oid ma'lumotlar mos ravishda to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) turkman, ozarbayjon, qoraqalpoqlarning etnogenezida muhim rol o'ynagan; 2) Oltoyning g'arbida, so'ngra Irtish daryosining o'rta oqimida yashaganlar; 3) Yettisuv o'lkasida o'z davlatlariga asos solganlar; 4) davlat poytaxti Chu daryosidan shimolroqda joylashgan Suyob shahri bo'lgan; 5) Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida muqim yashaganlar va shu hududda o'z davlatlariga asos solganlar; 6) X asrning birinchi choragida shimoli-sharqdan qo'zg'algan qipchoqlar zarbasiga uchrab bo'linib ketgan; 7) o'zbek va tojiklarning etnogenezida muhim rol o'ynagan; 8) davlat poytaxti Yangikent shahri bo'lgan

- A) a-2, 3, 4, 6; b-1, 5, 7, 8  
B) a-1, 3, 6, 8; b-2, 4, 5, 7

- C) a-1, 3, 7, 8; b-2, 4, 5, 6  
D) a-2, 3, 4, 7; b-1, 5, 6, 8

23. Quyida berilganlardan to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni belgilang.

1) Yosimune Tokugava 1716-1745-yillarda hukmronlik qilgan; 2) 1864-yilda Yevropa davlatlari Turkiyaga qarshi "Muqaddas Liga" tuzdilar; 3) Argentinada 1810-yilda mustaqillik uchun qurolli kurash boshlandi; 4) 1816-yilda Paragvay mustaqillikka erishdi; 5) 1325-yilda Dehli sultonligi taxtiga Muhammad Tug'luq keldi.  
A) 1, 2, 4    B) 1, 3, 5    C) 2, 3, 4    D) 1, 4, 5

24. XIX asr boshlarida quyidagi qaysi davlatda yagona fuqarolik ham bo'lmagan?

- A) Angliya  
B) Fransiya

- C) Germaniya  
D) Shvetsiya

25. Amir Temur quyidagi qaysi ilmlardan ham yaxshigina xabardor bo'lgan.

- A) Astronomiya, matematika, falakiyot, me'morchilik va tarix  
B) Fiqh, matematika, falakiyot, me'morchilik va tarix  
C) Tibbiyot, matematika, falakiyot, me'morchilik va tarix  
D) Kartografiya, matematika, falakiyot, me'morchilik va tarix

**3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi**

26. Davlat korxonalarini, mulkini muayyan muddatga chet el kapitaliga berish haqida kelishuv shartnoma ma'nosini anglatuvchi atamani belgilang.

27. Salibchilar tomonidan diniy ritsarlik ordenlari qaysi davlat hududida tashkil etilgan?

28. "Tarix haqida mukammal kitob" nomli asar muallifi kim?

29. Ikkinchi jahon urushidan keyin Buyuk Britaniyada dastlabki saylovda qaysi partiya g'alaba qozongan?

30. Qaysi romanda insoniyat oldida turgan halokat va dahshatli azoblar oldindan aytib beriladi?



31. Rossiya O'rta juz xonligini o'ziga bo'ysundirgan yili Xiva xoni qaysi shaharni Buxorodan qaytarib olgan?
32. Abu Rayhon Beruniy Xorazmning qaysi shahrida ta'lim olgan?
33. 2017-yil Fuqarolar yig'ini raisining qaysi soha bo'yicha maslahatchisi lavozimi joriy qilindi?
34. Qaysi davlat davrida O'rta Osiyoda yashovchi aholining tashqi qiyofalarida hozirgi o'zbek va voha tojiklariga xos antropologik qiyofasi to'liq shakllangan?
35. Yaponiyada kadrlar tayyorlashning amerikacha standarti qachon joriy qilingan?
36. Qo'qon hukmdori Abdulkarimbiy taxtga chiqishdan oldin qaysi hududning hokimi bo'lgan?
37. 1960-yillarning oxirida "EKSP0 70" ko'rgazmasi qaysi shaharda bo'lib o'tgan?
38. XX asr 20-yillar oxirida O'zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi a'zosi bo'lgan ayol kim?
39. Qadimgi Yunonistonda kundalik joriy masalalarni hal qilayotgan tashkilotni aniqlang?
40. Shayboniy Ko'chimxon kimning harbiy yordami bilan Sibir xonligini egallagan?

